

# TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

IV son, Mart

## TA'LIM TIZIMIDA STATISTIK MA'LUMOTLARNING ROLI

**Akbarova Barno Shuxratovna**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*Iqtisodiy statistika kafedrasи dotsenti*

**Abduhafizova Dilshoda Jamshid qizi**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lif tizimida statistik ma'lumotlarning roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Statistik ma'lumotlar ta'lif jarayonlarini boshqarish, sifatni baholash va strategik qarorlar qabul qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Maqolada statistik ma'lumotlardan foydalanishning nazariy asoslari, xorijiy tajribalar va O'zbekiston ta'lif tizimidagi holatlar o'r ganiladi.

**Kalit so'zlar:** statistik ma'lumotlar, ta'lif tizimi, sifatni baholash, ta'lif boshqaruvi, raqamli ta'lif, testologiya.

### Kirish

Ta'lif tizimi har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'lif boshqaruvida qaror qabul qilishning ilmiy asoslanganligi muhim bo'lib, bunda statistik ma'lumotlar katta ahamiyat kasb etadi. Ta'lif jarayonlarini tahlil qilish va baholash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish zaruriyati ortib bormoqda. Ushbu maqolada ta'lif sohasida statistik ma'lumotlardan foydalanishning ilmiy asoslari va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi.

Statistik ma'lumotlarning ta'lif tizimiga ta'siri bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, Qodirov va Mavlonova (2024) o'z tadqiqotlarida Finlyandiya va Janubiy Koreya ta'lif tizimlarida statistik ma'lumotlardan foydalanish amaliyotini o'rganib, ularning O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlari statistik tahlil asosida ta'lif tizimini rivojlantirishga oid metodologik yondashuvlarni taklif etadi.

Muradov (2025) ta'lif boshqaruvida maktab ta'limi tizimi statistikasini shakllantirish zaruriyatini o'rganib, sun'iy intellekt texnologiyalari orqali statistik ma'lumotlarni boshqarishning afzalliklarini ko'rsatgan. Ushbu tadqiqotlar statistik tahlil va texnologiyalarni ta'limga joriy etish orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini ochib beradi.

### Tahlil va natijalar

Statistik ma'lumotlar ta'lif tizimida quyidagi jihatlar bo'yicha muhim rol o'ynaydi:

Ta'lif sifatini baholash – statistik ma'lumotlar o'quvchilarning bilim darajasini, o'qituvchilarning samaradorligini va ta'lif muassasalarining umumiyl ko'rsatkichlarini baholash imkonini beradi. Ushbu tahlillar natijasida ta'lif sifati bo'yicha islohotlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi mumkin. Misol uchun, xalqaro miqyosda PISA va TIMSS

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

*IV son, Mart*

kabi baholash tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Bu tahlillar maktablarda ta’lim dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirishga imkon yaratadi.

Qaror qabul qilish – statistik ma’lumotlar asosida ta’lim tizimining rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi. Davlat ta’lim siyosatini belgilashda maktablarning moddiy-texnik bazasi, o‘quvchilar soni, pedagoglarning malakasi hamda ta’lim muassasalarining o‘quv natijalari tahlil qilinadi. Masalan, ta’lim budgetini shakllantirishda har bir hududda ta’lim muassasalarining ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Raqamli ta’limni rivojlantirish – statistik ma’lumotlar raqamli ta’lim platformalarini yaratish va ularni samarali boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda elektron ta’lim vositalari, masofaviy o‘qitish tizimlari va sun’iy intellekt asosida ishlovchi o‘quv tizimlari keng joriy etilmoqda. Statistik tahlillar bu jarayonlarning samaradorligini aniqlash va takomillashtirishga yordam beradi. Masalan, ta’lim muassasalari tomonidan joriy etilayotgan onlayn kurslarning foydalanuvchi soni, ularning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va interaktivlik darajasi doimiy monitoring qilinishi kerak.

O‘quv dasturlarini optimallashtirish – Statistik ma’lumotlar asosida o‘quv dasturlarini takomillashtirish va ularni zamonaviy me’yorlarga moslashtirish mumkin. Masalan, turli fanlar bo‘yicha o‘quvchilarning test natijalari tahlil qilinib, qaysi mavzular bo‘yicha bilimlar sust ekanligi aniqlanadi. Ushbu ma’lumotlar asosida darsliklar, o‘quv materiallari va ta’lim metodikalari takomillashtirilishi mumkin.

Quyida O‘zbekiston Respublikasida 2019/2020 o‘quv yili boshida oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni va ularning yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti keltirilgan:

1-jadval. [O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi bo‘yicha statistik ma’lumotlar ochiqlandi](#)

Yo‘nalish	Talabalar soni (ming nafar)	Ulushi (%)
Gumanitar soha	206,9	48,7
Ijtimoiy soha, iqtisodiyot va huquq	41,6	9,8
Ishlab chiqarish texnikasi	105,1	24,7
Qishloq va suv xo‘jaligi	25,9	6,1
Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy ta‘minot	27,1	6,4
Xizmatlar sohasi	18,4	4,3
Jami	424,9	100

## TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

IV son, Mart

### Xulosa

Ta'lismizda statistik ma'lumotlarning qo'llanilishi zamonaviy ta'limgarayonlarining samaradorligini oshirish va ta'lismiz sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Ta'lismizdagi har bir islohot va o'zgarish ilmiy asoslangan bo'lishi lozim, bunda esa statistik tahlil hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, statistik ma'lumotlardan foydalanish o'qituvchilar va o'quvchilarning natijalarini real vaqt rejimida baholash imkonini beradi. Bu esa ta'limgarayonlarida aniq va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatini oshiradi. Xalqaro tajriba esa shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda statistik tahlil yordamida ta'lismiyosati shakllantiriladi va bu orqali maktablarning natijalari optimallashtiriladi.

Kelajakda O'zbekiston ta'lismizda ham zamonaviy texnologiyalar va statistik tahlillarni kengroq joriy etish orqali ta'lismiz sifatini oshirish mumkin. Shu bilan birga, statistik ma'lumotlardan samarali foydalanish ta'limgarayonlarini innovatsion rivojlantirish, raqamli ta'limgarayonlarini kengaytirish va ta'limgarayonlarini adolatli taqsimlash imkonini beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov F., Mavlonova M. "Ta'lismizda raqamlashtirishning xorij tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash usullari". Наука и технология в современном мире, 2024.
2. Muradov I. "Ta'limgarayonlarning maktab ta'limi tizimi statistikasini shakllantirish zaruriyati". Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 2025.
3. Isayev B. "Ta'lismizda raqamli iqtisodiyot istiqbollari". Jizzax Politexnika Instituti Ilmiy Jurnalı, 2022.
4. Ilmurodova D. "Ta'lismizda raqamlashtirish sharoitida kompyuterlashtirilgan ta'limgarayonlarning samaradorligi". TATU Qarshi filiali, 2020.
5. Xalikov F. "Ta'lismizda testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari". Farg'onadavlat Universiteti, 2024.